TIJORAT BANKLARIDA KREDIT SAMARADORLIGINING AHAMIYATI

Xayitbayeva Lobar Tursunboyevna
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Qabul qilindi: 05.11.2025
Ko‘rib chiqildi: 06.11.2025
Tasdiqlandi: 07.11.2025

Kalit so‘zlar:
tijorat banklari, kredit samaradorligi, kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, kredit portfeli, risklarni boshqarish, foydalilik ko‘rsatkichi.

Annotatsiya. Ushbu tezisda tijorat banklarida kredit samaradorligining iqtisodiy tizimdagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Kredit siyosatini samarali yuritish bank faoliyatining barqarorligi, foydaliligi va raqobatbardoshligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi. Maqolada kredit samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari, ularni oshirish mexanizmlari hamda risklarni boshqarishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilingan. Shuningdek, O‘zbekiston tijorat banklari misolida kredit portfeli sifati, kreditlash jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar keltirilgan.

Iqtisodiyotda munosabatlarning ijobiy yakuni samaradorlik bilan o‘lchanadi. Tadqiqot natijalari ko‘rsatmoqdaki, shu paytgacha samaradorlik tushunchasi mazmunan izohlanib kelingan, lekin hech bir olim tomonidan samaradorlik tushunchasiga ta’rif berilmagan. Fikrimizcha, samaradorlik tushunchasiga ayni payt uchun mos bo‘lgan ta’rif ishlab chiqilishi kerak. Chunki, samaradorlik haqida tushunchaga ega bo‘lgandan so‘ngina biz ham o‘z oldimizga qo‘yilgan maqsadni, ya’ni kredit samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy takliflarimizni ishlab chiqishimiz oson va berilgan takliflar mukammal bo‘ladi deb hisoblaymiz.

«Samaradorlik deganda – umuminsoniy faoliyat hamda uning shaxsiy insoniy omiliga xizmat qiluvchi tizim subektlarining birgalikda o‘zaro teng huquq va majburiyatlar asosida o‘z oldilariga qo‘ygan maqsadlariga muvaffaqiyatli erishib, iqtisodiy o‘sish uchun zamin yaratilish darajasidir». Kreditning samaradorligi masalasi xorijlik iqtisodchi olimlar tomonidan ilmiy asosda tadqiq qilingan va tegishli ilmiy-nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Prof. O.I. Lavrushinning fikriga ko‘ra, kreditning samaradorligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar tizimi mavjud bo‘lib, ular orasida muammoli kreditlar va kreditlarning daromadliligini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar muhim o‘rin egallaydi (Lavrushin O.I. Bankovskoye delo: sovremennaya sistema kreditovaniY. - M.: KNORUS, 2008. - 264 s.).

Prof. N.E. Sokolinskayaning xulosasiga ko‘ra, risklarni diqqat bilan

kuzatish, sifatli kredit yig‘ma jildini shakllantirish, kreditlash jarayonini boshqarish uchun yaxshi ma’lumotlar bazasiga ega bo‘lish kreditning sifat mazmunini ta’minlashning asosiy jihatlari hisoblanadi (80. Sokolinskaya N.E. Problemi menedjmenta kreditnogo portfelya v sovremennix usloviyax//Bankovskoye delo. – Moskva, 1999. - №9. – S. 18-19.).

S. Vayn o‘z tadqiqotlari natijalariga asoslangan holda, kreditlarning samaradorligini ta’minlashda kreditlar bo‘yicha tashqil etiladigan zaxiralarning darajasini muhim o‘rin tutishini e’tirof etgan (Vayn S. Optimizatsiya resursov sovremennogo banka. – M.: Alpina Pablisher, 2013. – 194 s.).

Xalqaro ta’mirlash va taraqqiyot banki ekspertlarining tavsiyasiga ko‘ra, tijorat banklari kredit portfelining sifatini ta’minlashda kreditlardan ko‘rilgan zararlarni qoplashga mo‘ljallangan zaxira ajratmalarining meyoriy darajalarini ta’minlash va kreditlardan olinadigan foizli daromadlarning barqarorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi (www.worldbank.org – Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki).

Prof. V.M.Ususkinning fikriga ko‘ra, talab qilib olinadigan depozitlardan kredit resursi sifatida foydalanish tijorat banklarining likvidliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi (Ususkin V.M. Sovremenniy kommercheskiy bank: upravleniye i operatsii. – M.: Vazar-Ferro, 1994. – 320 s.).

Taniqli iqtisodchi olimlarning yuqorida qayd etilgan ilmiy-nazariy qarashlaridan xulosa qilish mumkinki, tijorat banklari kreditlarining samaradorligini ta’minlashda kredit riskining past va barqaror darajasini ta’minlash hamda kreditlardan olinadigan foizli daromadlarinng barqarorligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, «kredit samaradorligi – bu jamiyat a’zolarining joriy davrda va kelgusidagi moddiy va ma’naviy ne’matlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish maqsadida berilgan kreditlardan unumli foydalanish asosida daromad yoki ijtimoiy samara olinishi hamda mazkur kreditlarni o‘z vaqtida va to‘liq qaytarilishining ta’minlanishidir».

Kredit va samaradorlik haqida tushunchaga ega bo‘lgan holda kredit amaliyotlari samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish mumkin deb o‘ylaymiz. Ayrim bank xodimlarining fikricha kredit samaradorligi - kredit mablag‘larining qarzdor tomonidan foizlar bilan qaytarib berilishidir. Biz bu fikrga qo‘shilaolmaymiz, chunki, amaliyotda kredit mablag‘i va unga hisoblangan foizlar subekt faoliyatida qo‘shimcha qiymat yaratilmay, kredit mablag‘i ta’minotning ikkilamchi manbayi obekti bilan qaytarilishi amaliyotda tez-tez uchrab turmoqda. Bu holat esa kredit mablag‘ining subekt faoliyatida samarali ishlatilmaganligidan dalolat beradi. Fikrimizcha, kredit samaradorligi – munosabat ishtirokchilarining teng huquq va majburiyatlar asosida o‘z maqsadlariga muvaffaqiyatli yetishishlari natijasidagina, ya’ni qarzdor faoliyatida kredit mablag‘i samarali ishlatilib, iqtisodiy o‘sish uchun zamin yaratilganda va kredit mablag‘larining qaytarilishi ta’minotning ikkilamchi manbai obekti qiymati evaziga emas, balki qarzdor faoliyatida olingan foyda

hisobidan o‘z vaqtida qaytarilganda munosabat samarali yakun topgan bo‘ladi.

Garchi amaldagi qonunchilik talab va qoidalarda shartnomaviy majburiyatni buzgan «lizing» oluvchi lizing shartnomasi bekor qilinishi bilan mol-mulkni «lizing» beruvchidan olgan holatida normal eskirishlarini va shartlashilgan o‘zgarishlarni hisobga olib, qaytarib berishga majburligi belgilangan bo‘lsa-da, lizing obektining qaytarib olinishi oqibatida, lizing beruvchi hisobida vaqtincha yoki umuman haridori bo‘lmagan keraksiz mulkning vujudga kelishiga olib keladi. Bu esa lizing beruvchiga qo‘shimcha xarajatlarni va eng asosiysi daromad keltiruvchi aktivning daromad keltirmaydigan aktivga aylanib qolish xatarini keltirib chiqarib kredit munosabatlari samaradorligining kamayishiga olib keladi. Shuning uchun «lizing» amaliyotlari bilan bog‘liq bo‘lgan har bir tadbirni bozor iqtisodiyoti va hududiy shart-sharoitlarga asoslanib chuqur iqtisodiy tahlil etish lozim.

Hududiy banklarda kreditlashning kontokorrent shaklidan umuman foydalanilmaydi. Fikrimizcha, mijozlar faoliyatini moliyalashning bu usulini qo‘llash xizmat ko‘rsatish sohasining doimiy pul tushumini ta’minlovchi tizim subektlari faoliyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir etadi. Chunki, bu usulda mijozlar o‘z faoliyatini bir meyorda olib borishi uchun bankning qat’iy kafolatlangan va faoliyat uchun belgilangan meyor chegara doirasida kredit mablag‘laridan bemalol foydalanishlari mumkin. Kredit mablag‘laridan foydalanish davrida mijozlar uchun har bir kredit mablag‘i uchun shartnoma tuzish va shartnoma tuzish bilan bog‘liq bo‘lgan rasmiyatchilikdan forig‘ bo‘ladilar. Shuningdek, banklarga bu usulda kreditlash jarayonida subekt tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar hajmini nazorat qilib borish va kreditlarni qaytarib borishni rejalashtirish imkonini beradi.

Tijorat banklarining overdraft va kontokorrent kreditlari barqaror pul oqimiga ega bo‘lgan xizmat ko‘rsatish subektlari faoliyatini moliyalashtirishda, xususan, ularning aylanma mablag‘larga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishda muhim o‘rin tutadi. Buning sababi shundaki, ushbu kreditlash shakllari qisqa muddatli bo‘lib, ulardan foydalanish jarayonida garov mexanizmidan foydalanish murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki, xizmat ko‘rsatish subektining joriy hisobraqamida pul mablag‘lari yetishmasligi yuzaga kelishining vaqtini va summasini oldindan bilish qiyin. Kreditlashning bir shakli uning ikkinchi bir shaklining o‘rnini bosa olmaydi. Shu sababli, kreditlashning barcha shakllaridan bir vaqtning o‘zida, mijozlarning kreditga bo‘lgan talabiga individual yondashgan holda foydalanish xizmat ko‘rsatish sohasi subektlarini kreditlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bank tizimini isloh qilish va moliyaviy barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *Bank sektorining rivojlanish tendensiyalari to‘g‘risida hisobot.* Toshkent.

3. Karimov, I.A. (2015). *Iqtisodiy islohotlar – taraqqiyot va farovonlik poydevori.* Toshkent: O‘zbekiston.
4. Murodov, A. (2021). *Tijorat banklarida kredit siyosatini takomillashtirish yo‘nalishlari.* “Moliyaviy tahlil” jurnali, №3, 48–55.